# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9

2023





08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rni ... 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo‘llari ... 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ... 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

“Yashil iqtisodiyot”da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ... 20
**Umarov Faxriddin Umar o‘g‘li,** katta o‘qituvchi

Yoqilg‘i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ... 26
**Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

Tog‘li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ... 31
**Abduvakil Alimov Komil o‘g‘li,** tayanch doktorant

Ta’lim turizmining nazariy asoslari va O‘zbekistondagi tendensiyalari ... 38
**Maxmudova Nodira O‘ktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ... 43
**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ... 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ... 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda “Tourism 4.0” konsepsiyasini joriy etish masalalari ... 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulug‘bekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ... 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid o‘g‘li,** magistrant

Перспективные направления “Зелёной химии” для Республики Узбекистан ... 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

O‘zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ... 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ... 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili ... 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ... 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ... 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ... 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekistonda to‘lov tizimining raqamli transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ... 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normo‘minovna,** o‘qituvchi

Tijorat banki xizmatlarida ta’lim kreditining o‘rni va uni takomillashtirish masalalari ... 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ... 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ........ 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ........ 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ........ 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ........ 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ........ 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ........ 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ........ 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ........ 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ........ 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ........ 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ........ 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ........ 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойбергенович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

# TA'LIM ISLOHOTLARINING MA'NAVIYATDAGI O'RNI



**Bekdavlat Aliyev**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi" professori, f.f.d.

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ilm-ma'rifat va ta'limning sifatisiz tasavvur etib bo'lmasligi, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi va uning ma'naviyatdagi o'rni borasida so'z yuritiladi.

Sifatli ta'lim-tarbiya ma'naviyatning rivoji va shaxs xulq-atvorida muhim ahamiyatga ega ekanligi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ilm-ma'rifat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor.

Abstract: The article talks about the fact that the development of New Uzbekistan cannot be imagined without the quality of science and education, that the development of education is the first task in developed countries today, and its role in spirituality.

It has been thoroughly analyzed that quality education is important for the development of spirituality and personality.

Key words: New Uzbekistan, knowledge, spirituality, education, behavior.

Аннотация: В статье говорится о том, что развитие Нового Узбекистана невозможно представить без качества науки и образования, о том, что развитие образования является сегодня первоочередной задачей в развитых странах, и его роли в духовности.

Тщательно проанализировано, что качественное образование важно для развития духовности и личности.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, знания, духовность, образование, поведение.

## KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbkeiston islohotlarida ham ta'lim-tarbiya berish faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati uzoqni ko'zlagan yuksak maqsadlarimizni namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz intellektual bilim-salohiyatli bo'lishi, mustaqil hayotga qadam qo'yganda munosib hayot kechirish, kasb-hunar egallab doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik hamda barkamollikka erishish uchun ta'lim olishni eng asosiy hal qiluvchi sifatida qabul qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xalqaro qo'shma dsturlar integratsiyalashtirish bo'yicha amaliy ishlar hayotga tatbiq qilinmoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha belgilab berildi. Jumladan,

1) maktabgacha ta'lim sohasida;
2) umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
3) oliy ta'lim;
4) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi tamoyillardir.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi istiqbollidir.

Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunni keltirishimiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o'xshash masalalar belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, yurtimizda ilk bor Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ham tashkil etilganligi ushbu sohadagi asosiy islohotlardan biri bo'ldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga lisenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Ushbu Qonun bilan 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "farzandlari-miz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asos-langan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"[1].

Yangi O'zbekistonda ta'lim islohotlarini amalga oshrishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni[2]ga muvofiq, "O'zbekiston–2030" strategiyasi qabul qilinishi yangi bosqichni boshlab berdi. Farmonga asosan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston–2030" strategiyasini "2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 300-sonli qarori qabul qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida jami 5 ta ustuvor yo'nalish, 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko'rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Ushbu dasturilamal hujjatning ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma'naviy manfaat yetib, har qaysi oila va xonadon obodlik, to'kinlik, fayz va baraka topadi.

Birinchi ustuvor yo'nalish: Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan 44 ta maqsad, ya'ni 1-maqsaddan – 44-maqsadgacha ushbu ustuvor yo'nalish tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma'naviyat masalalariga taalluqli 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta vazifa qamrab olingan bo'lib, 130 ta maqsadli ko'rsatkichni ishlab chiqish belgilangan. Shuningdek, 38 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash va qabul qilish ko'zda tutilgan.

Masalan, Qonunchilikda o'qituvchilarga berilgan ayrim imtiyozlar mavjud:

- 1-oktyabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" etib belgilangan hamda ushbu kun bayram (dam olish) kuni hisoblanadi.
- Bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan barcha pedagog xodimlar doimiy ravishda bepul tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.
- Pedagoglar uchun 56 kunlik yillik haq to'lanadigan uzaytirilgan ta'tillar beriladi.
- Pedagoglar xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga ko'pi bilan 36 soat qilib belgilanadi.
- Maktab o'qituvchilariga faoliyatni baholash mezonlari asosida 10 foizdan 40 foizgacha, kutubxonachi va psixologlarga 10 foizdan 20 foizgacha ustama belgilanadi.
- Fan olimpiadasi g'olibini tayyorlagan o'qituvchilar rag'batlantiriladi.
- O'qituvchilar kasal bo'lib qolganida moddiy yordam beriladi.
- Olimpiada g'olibi bo'lgan o'qituvchilarga 150 foizgacha ustama beriladi.

1 Yangi O'zbekiston https://www.yuz. uz_news–talim-tizimi-va-yangicha-yo
2 PF–158-son 11.09.2023. – 2030" strategiyasi to'g'risida. https://lex.uz.docs

- O‘zi dars beradigan fani bo‘yicha xalqaro tan olingan va milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lanadi.
- “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovi g‘olibi bo‘lgan maktabga yarim milliard so‘m beriladi.
- Inklyuziv sinf o‘qituvchilariga 40 foizgacha ustama beriladi.
- Olis hududlarda dars berayotgan o‘qituvchilarga 50 foizgacha ustama beriladi.
- Matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g‘oliblarini tayyorlagan professor-o‘qituvchilarga pul mukofoti beriladi.
- Ko‘p yillik stajga ega pedagoglar majburiy attestatsiyaga jalb qilinmaydi.
- Xalqaro fan olimpiadalarini tayyorlagan o‘qituvchilarga malaka toifasi attestatsiyasiz beriladi.
- Respublika fan olimpiadasi g‘oliblarini tayyorlagan o‘qituvchilar malaka toifasi bir pog‘ona oshiriladi.
- Tibbiyot sohasi professor-o‘qituvchilariga davolash-tashxis ishlarini bajarganliklari uchun qo‘shimcha haq to‘lanadi.
- Ta’lim muassasalarining chet tillar fanlari o‘qituvchilariga oylik ustamalar beriladi.
- O‘qituvchilarning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik bor bo‘lib, u qonun bilan kakfolatlab qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston aynan maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, mamlakat taraqqiyoti ilm-fan va innovatsiyaga tayanadi. Zero, maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz esa yangi Uyg‘onish davri, globallashuv davrida mamlakatimiz raqobatbardoshligining to‘rt tayanch ustunidir.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim-tarbiya sohasi – maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qisqa muddatda ta’lim-tarbiya sohasi tubdan o‘zgartirilgani:

- bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 72 foizga olib chiqilishi;
- maktab ta’limida qo‘shimcha 700 ming o‘quvchi o‘rni yaratilishi, 200 ga yaqin mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar hamda 400 ta xususiy maktab tashkil qilinishi;
- matematika-fizika va kimyo-biologiya fanlarini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi va amalga oshirilishi;
- ta’limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg‘or xorijiy tajribalar asosida to‘liq yangilanishi, maktablarga minglab xorijiy muallimlar olib kelinishi, murabbiylar mehnatiga munosib haq to‘lash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilishi;
- yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2022-yilda 38 foizgacha – 4,2 barobar, oliy ta’lim muassasalari soni esa 3 barobar (77 tadan 210 taga) oshgani, 65 ko‘proq nodavlat OTM tashkil qilinishi (2016 yilda umuman bo‘lmagan), xorijiy OTM filiallari soni 4,2 barobar ko‘payishi kabilar bu borada amalga oshirilgan ishlar ko‘lamidan darak beradi.

Natijada bugun qancha-qancha oddiy oilalar farzandlari xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lmoqda, 1 milliondan ortiq yigit-qizimiz oliy ta’limda tahsil olmoqda (2016 yilda 270 ming nafar), nufuzli xorijiy oliygohlarga kirmoqda. Ularning ota-onalari quvonchi cheksiz.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan ishlar debochasidir. Bugun ta’lim sifatini yanada oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Xalqaro ekspertlar bilan o‘tkazilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, bugun hayotimizdagi mavjud sharoitlar bolalarga faqat 60 foiz salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkon bermoqda.

Birinchidan, 2030-yilga qadar maktabgacha ta’limga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qoplab, qamrovni 100 foizga yetkazish va bog‘chalarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish. Ushbu maqsadda:

- 7 foizlik stavkada 10 yil muddatga kredit berish uchun imkoniyat yaratilib, ishlab chiqarish korxonalarining bog‘cha qurishga sarf etiladigan xarajatlarini soliqlardan to‘la ozod qilish tartibi ishlab chiqiladi;
- 2030-yilga qadar qo‘shimcha 2 mingta bog‘cha qurish choralari ko‘riladi;
- ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bog‘cha, jumladan, xususiy bog‘cha xarajatlari davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etiladi;
- har bir bog‘chani kompyuter sinfi bilan ta’minlash choralari ko‘riladi. Bu, o‘z navbatida, bolalarni erta yoshdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalariga o‘rgatishga va ularning kelajakda yuksak salohiyatga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bog'cha va maktablar infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, filtrlangan ichimlik suv, sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash hamda bolalarning sog'lom ovqatlanishiga ko'maklashish maqsadida ularga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut va yod bilan to'yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, maktablarda qo'shimcha 2,5 million o'quvchi o'rnini yaratgan holda ta'lim sifati tubdan yaxshilanadi. Shu maqsadda:

- "Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni" dasturi ishlab chiqilib, amalga oshiriladi;
- xususiy ta'limga qo'shimcha yengilliklar berilib, davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida maktablar qurish keng joriy etiladi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan to'liq ta'minlanadi va buning uchun zarur moliyaviy imkoniyatlar yaratiladi;
- chekka hududlarda "maktab avtobuslari" bepul yo'lga qo'yiladi;
- 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda "Iste'dod – Intilish – Istiqbol" nomli ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilib, ularda Prezident maktablaridan kam bo'lmagan sharoit yaratiladi va ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun 70 foiz kvota ajratiladi;
- barcha maktablarga "til egalari" bo'lgan o'qituvchilar jalb qilinadi, bu maqsadlarga har yili 200 milliard so'm mablag' ajratish choralari ko'riladi. Zero, xorijiy tillarni bilish – yoshlarimiz uchun dunyo eshiklarini ochadigan kalit.

Uchinchidan, oliy ta'lim va ilm-fan tizimlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish. Shu maqsadda:

- dunyodagi "Top–500"ga kiradigan chet el oliygohlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma o'quv dasturi va "ikki diplomli tizim"ni ("double degree") joriy etish asosiy vazifa bo'ladi. Bugungi kunda jahonning (AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Indoneziya, Isroil va boshqa qator davlatlar) nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikdagi "double degree" ta'lim dasturlari asosida o'qitish qamrovi kengaymoqda.

Bu jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zarur mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda;

- biotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda iste'dodli yoshlarni eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o'qishga yuborish bo'yicha 200 million AQSh dollarilik dasturlar amalga oshiriladi. Ushbu tashabbuslar dunyoning aksariyat mamlakatlari "To'rtinchi sanoat inqilobi" arafasida turgan bir paytda O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi;
- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga 1 milliard AQSh dollari ajratilishi uchun moliyaviy imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Shuningdek, madaniyat, san'at va adabiyot vakillari, ma'naviyat sohasi xodimlari, barcha ziyolilarning mashaqqatli va sharafli mehnatini qadrlash va rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rib boriladi[3].

Kelgusi 7 yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi mazkur dasturilamal hujjatlar xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlashga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"O'zbekiston–2030" strategiyasining maqsadi – qayerda istiqomat qilishidan qat'i nazar O'zbekistonda yashovchi barcha insonlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat. Unda Strategiyaning maqsadlari va samaradorlik ko'rsatkichlari qulay shaklda ifodalangan bo'lib, unda 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta maqsad nazarda tutildi. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish ana shular jumlasidandir.

3 Ustuvor maqsadimiz – insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish O'zLiDeP https://uzlidep. uz › Partiya yangiliklari

Qayd etish kerak, strategiyaning salmoqli qismi aynan butun Oʻzbekiston boʻylab, shu jumladan, olis joylar va hududlar aholisining turmush darajasi hamda sharoitlarini tenglashtirishga, shu bilan birga, taʼlim sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilgani bilan eʼtiborga molik.

Chunonchi, dasturilamal hujjatga koʻra, 2024-yil 1-yanvardan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan toʻyintirilgan non mahsulotlari berilishi yoʻlga qoʻyiladi. Bu, oʻz navbatida, kelajagimiz boʻlgan yosh avlodning har jihatdan sogʻlom va barkamol boʻlib ulgʻayishlarini taʼminlaydi. Shu bilan birga, bolalar oʻrtasida turli xastaliklar bilan kasallanish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki farzandlarimiz sogʻligʻiga oʻz vaqtida koʻproq eʼtibor qaratilsa, bu koʻzlangan samarani beradi.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Qoʻshkoʻpir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlangʻich sinf oʻquvchilari taʼlim planshetlari bilan taʼminlanib, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Umumiy oʻrta taʼlimni yangi bosqichga koʻtarish maqsadida 2030-yilgacha 208 ta “Isteʼdod-Intilish-Istiqbol” maktab-internatlarini tashkil etish koʻzda tutilmoqda. Strategiyada barcha shahar va tumanlarda “shart-sharoitlari Prezident maktablarinikidan kam boʻlmagan” ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Aytish kerakki, bolalarga intellektual qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda alohida taʼlim berilishi (tracking) “qobiliyatli” bolalarni yaxshiroq rivojlantirish, oʻqitish davomida ularning ehtiyojlarini hisobga olish va umuman, taʼlim sifatini oshirish imkonini beradi.

Strategiya doirasida 2023–2024-oʻquv yilida butun mamlakat boʻylab 120 dan ortiq maktabda, tajriba tariqasida, yuqori sinflar uchun tanlov fanlarini joriy etish nazarda tutilgan. Yoshlar va sportga oid davlat siyosati islohotlari doirasida maktab bitiruvchilarining kamida ikkita chet tili va bitta kasb-hunarni puxta egallashiga erishish aks etdi.

Hujjatda, shuningdek, taʼlim sohasidagi koʻplab tadqiqotchilar va amaliyotchilar, umuman, barcha uchun sifatli taʼlim olishning teng imkoniyatlari yaratilishi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga yanada yaxshiroq hissa qoʻshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ustuvor maqsadimiz – insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish OʻzLiDeP https://uzlidep.uz_Partiya yangiliklari
2. Yangi Oʻzbekiston https://www.yuz.uz_news_talim-tizimi-va-yangicha-yo
3. PF–158-son 11.09.2023. – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida LEX. UZ https://lex.uz_docs
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026 yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2022 y, 6-son). www.lex.uz
5. PQ–5129-son 27.05.2021. Osiyo taraqqiyot banki va ... https://lex.uz_docs
6. Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish ... https://lex.uz_acts
7. https://lex.uz_docs... va 5 pogʻonaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-oʻrinni egalladi. ... Xususan, Jahon Bankining “Ayollar, biznes va qonun indeksi”da 190 ta mamlakat ...
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida(Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2022-y, 6-son). www. lex,uz.
9. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2021. – 461 b.; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida(Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2022-y, 6-son). www. lex,uz.
10. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: Oʻzbekiston, 2020. – 508 b.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.